

REJALI EMLASH VA UNING AHAMIYATI

Farg'ona viloyati Beshariq tumani

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi tibbiyot texnikumi

o'qituvchisi **Isaqova Guljahon Sodiqovna**

Anatatsiya: Bolalarda profilaktik emlashni o'tkazish qay darajada muhimligi va aholini tibbiy tushunchalarini oshirish.

Kalit so'zlar Vakstina, VGV, OPV, BSJ, AKDS, XIB, KPK, ADS-M, ROTA, PKV.

Profilaktik emlash va uning ahamiyati.

Emlash xavfli va yuqumli xastaliklar qo'zg'atuvchisining zararsiz miqdordagisini organizmga yuborish jarayoni hisoblanadi. Organizm bu virus bilan «tanishadi» va unga qarshi immunitet hosil qiladi. Bu orqali xastalikning yuqish ehtimoli sezilarli darajada kamaytiriladi.

Emlashning ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi taqdim etgan ma'lumotga ko'ra, emlash kampaniyasining to'g'ri amalga oshirilishi natijasida bo'g'ma, qoqshol, virusli gepatit V kabi xastaliklar O'zbekiston hududida uchramaydi. Ommaviy emlash bolalar o'rtasida yuqumli kasalliklar bilan kasallanishni va o'lim daraja sini sezilarli kamaytirib, kelgusi xayot davomiyligini oshirib, uzoq aktivlikni ta'minlab, ayrim antroponoz kasalliklarni yo'q qiladi. Hozirgi vaqtda dunyoda emlash vositlari bilan 40 ta yuqumli kasalliklarga qarshi samarali kurash olib borilmoqda .

Emlash vaksinalar orqali amalga oshiriladi.

Emlash turlari: 1)Vaksina 2)Bakteriofag 3)Immun zardob 4)Anatoksin.

Vakstina- bu yuqumli kasalliklarga qarshi immunitetni yaratish uchun mo'ljallangan tibbiy preparat.

Profilaktik emlash kalendari

Yoshi	Emlashlar nomi
1-kunida	VGV-1
2-5 kunida	BIJJ-1
2 oylikda	OPV-1, Rota-1 (oral rotavirus vaksinasi), penta-1(AKDS-1, VGV-2, XIB-1), pnevmo-1
3 oylikda	OPV-2 , Rota-2 (oral rotavirus vaksinasi), penta -2 (AKDS-2, VGV-3, XIB-2), pnevmo-2
4 oylikda	OPV-3, penta -3 (AKDS-3, VGV-4, XIB-3),IPV-1
9 oylikda	IPV-2
12 oylikda	KPK -1, pnevmo-3
16 oylikda	OPV – 4, AKDS –4
6 yosh	KPK -2
1 sinf (7 yosh)	OPV-5, ADS-M– 5
9 yosh	VPCh
16 yosh	ADS-M – 6

Eslatmalar: KPK – uch valentli qizamiq, qizilcha, epid parotitga qarshi tirik vakcina.

AKDS+VGV+XIB (pentovakstina) – besh valentli-ko'k yo'tal, bo'g'ma, qoqshol, VGV va XIB infektsiyalariga qarshi vakstina.

Rota – rotavirus infektsiyaga qarshi ichiriladigan vaksina

Pnevmo - pnevmokokk infektsiyaga qarshi vaksina

VPCh – bachadon saratoniga qarshi vaksina

IPV – inaktivlashgan poliomielit vaktsinasi.

Immunoprofilaktikada qo'llaniladigan vaksinalarni tavsiflari.

Vaksinalarni turlari	Vaksinalar nomi, dozalari va yuborish usullari	Saqlanish shartlari
Tirik vaksinalar	OPV (1 doza = og'izga 2 tomchi), KPK (1 doza = 0,5 ml teri ostiga), BIJJ (1 doza = 0,05 mg yoki 0,1 ml teri ichiga) Rota (rotavirus vaktsinasi) (1 doza=og'izga 1,5 ml)	Faqat OPVni muzlatish mumkin. KPK, BIJJ, RVV vaksinalari +2°S dan +8° S gacha haroratda saqlanadi,muzlatish mumkin emas.
O'ldirilgan	Ko'kyo'talga qarshi (AKDS tarkibida bo'ladi)	Barcha o'ldirilgan vaksinalar, anatoksinlar va rekombinant vaksinalarni muzlatish man
Anatoksinlar	AKDS, ADS, ADS-M, AD-M (1 doza =0,5 ml mushak orasiga), Qoqsholga qarshi (0,5 va 1,0 ml)	

Rekombinant vakstinalar Pentavalent vakstinalar	-Virusli gepatit V ga qarshi (1 doza = 0,5 ml mushak orasiga) -Virusli gepotit V ga, ko'kyo'talga, bo'g'maga, qoqsholga va XIB-infekstiyasiga qarshi (1 doza= 0,5 ml mushak orasiga).	<i>etiladi</i> , saqlash xarorati +2 dan +8° S gacha.
Konyugirlangan vaksinalar	PKV-10,13(1 doza= 0,5 ml mushak orasiga).	muzlatish <i>man etiladi</i> , saqlash harorati +2 dan +8° S gacha.
Odam papilomavirusi ga qarshi vaksina	VPCh (1 doza= 0,5 ml mushak orasiga).	muzlatish <i>man etiladi</i> , saqlash harorati +2 dan +8° S gacha.

Emlash xonasi hamshirasining (vaksinatorning)vazifalari:

- sanitariya qoida talablariga muvofiq emlash xonasi sanitariya holatiga javob beradi;
- vrach ko'rsatmasi asosida bolalarni emlaydi va emlash kalendariga hamda xavfsiz emlash qoidalariga rioya etishga javob beradi.
- o'tkazilgan emlatkilar va sarflangan vaksinalarni ro'yxatga olish uchun hisob – kitoblarni olib boradi;
- o'tkazilgan emlashlarni 112/u shaklga, 063/u shaklga va emlashlarni ruyxatga olish ishchi jurnaliga 064/u (emlash turi, utkazilgan kun, doza, seriya) yozib boradi;
- oylik emlashni monitoring qilish grafigini yuritib boradi.

- emlashdan so'ng reakstiyalarni xisobini olish uchun emlangan bolalarni uylariga faol qatnovni uyushtiradi.

- shifokor ko'rsatmasi va nazorati ostida emlash xonasiga vaksinalar, medikamentlar, bog'lov vositalari va jihozlarni oladi, vaksinalarni saqlash talablarini bajarilishini ta'minlaydi;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1)O'zbekiston Respublikasi Sanitariya meyorlari, qoidalari va gigiyenik normativlari

O'zbekiston Respublikasida Yuqumli kasalliklar Immunoprofilaktikasi

SanKvaM №- 0239-07/4Rasmiy nashr Toshkent -2021(8-18)

2)Q.Inamov,M.G'aniyeva"Pediatric hamshiralik ishi"

"Toshkent "ILM ZIYO"-2016(282-286)